



SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI TAHLILI

Adiz Azamat o'g'li Nasimov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Soliqlar va soliqa tortish" kafedrası assistenti
E-mail: adiz.nasimov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda soliq imtiyozlari tizimining amaldagi holati, soliq imtiyozlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza hamda ularni qo'llash samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud soliq imtiyozlarining tadbirkorlik va investitsiya faolligiga ta'siri, ulardan ortiqcha yoki samarasiz foydalanish bilan bog'liq muammolar hamda davlat budjeti daromadlariga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozlari, soliq siyosati, investitsiya faolligi, davlat budjeti, soliq tushumlari, soliqdan ozod qilish, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the current state of the tax incentive system in Uzbekistan, the regulatory framework governing tax incentives, and the effectiveness of their application. It also examines the impact of existing tax incentives on entrepreneurial and investment activity, issues related to their excessive or inefficient use, and their effect on state budget revenues.

Keywords: tax incentives, tax policy, tax legislation, entrepreneurial activity, investment activity, small business, state budget, tax revenues, tax exemption, economic development.

Абстрактный: В данной статье анализируется текущее состояние системы налоговых льгот в Узбекистане, нормативно-правовая база, регулирующая налоговые льготы, и эффективность их применения. Также рассматривается влияние существующих налоговых льгот на предпринимательскую и инвестиционную деятельность, проблемы, связанные с их чрезмерным или неэффективным использованием, и их влияние на доходы государственного бюджета.

Ключевые слова: налоговые льготы, налоговая политика, налоговое законодательство, предпринимательская деятельность, инвестиционная деятельность, малый бизнес, государственный бюджет, налоговые поступления, налоговая льгота, экономическое развитие.

Kirish (Введение/Introduction).

Soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan soliq siyosatining muhim vositalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida soliq imtiyozlarining turli shakllari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, soliq imtiyozlaridan samarali va maqsadli foydalanish soliq siyosatining muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.[1]

Shu sababli O'zbekistonda soliq imtiyozlarining amaldagi holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash, ularning tadbirkorlik va investitsiya faolligiga ta'sirini baholash hamda soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы)

Soliq imtiyozlari investitsiyalarni rag'batlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi fiskal siyosatning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Soliq imtiyozlarining nazariy asoslarini A. Atkinson va J. Stiglitzning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin [2]. Ular soliqa tortishda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, soliq imtiyozlari soliq tizimida sezilarli buzilishlarni keltirib chiqarmagan holda muayyan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishga xizmat qilgan taqdirdagina asoslangan hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlarda soliq imtiyozlarining samaradorligi ularning qanday shakllantirilgani, maqsadliligi, amal qilish muddati va

shaffofligiga bog'liqligi ko'rsatiladi. V.Tanzi soliq siyosatini samarali amalga oshirishda soliq ma'muriyatchiligi va institutsional salohiyatning muhim rolini ta'kidlagan [3]. Shu sababli soliq imtiyozlari aniq huquqiy tartibga solinishi va ulardan samarasiz foydalanishning oldini olish hamda davlat budjeti yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida muntazam baholab borilishi lozim.

O'zbekiston sharoitida bir qator tadqiqotchilar soliq siyosati, soliq imtiyozlari, soliq bazasini kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilash masalalarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlarda soliq imtiyozlari tadbirkorlik faolligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari sonining ortib borishi ularning iqtisodiy va fiskal natijalarini obyektiv baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.[4]

Adabiyotlarda alohida e'tibor qaratiladigan masalalardan biri soliq imtiyozlari va investitsiya faolligi o'rtasidagi bog'liqlikdir. To'g'ri tashkil etilgan soliq imtiyozlari korxonalarning soliq yukini kamaytirib, ularning investitsiya va biznesni kengaytirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarini oshiradi. Biroq soliq imtiyozlari aniq natijadorlik talablarisiz berilsa, kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology, Методология исследования)

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez, qiyosiy tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali O'zbekistonda soliq imtiyozlarining amaldagi holati, samaradorligi va davlat budjetiga ta'siri o'rganildi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

O'zbekistonda soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining keng qo'llanilishi ularning iqtisodiy samaradorligi va davlat budjeti daromadlariga ta'sirini muntazam baholab borishni talab etadi.[5]

Soliq imtiyozlarini tahlil qilish orqali ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga, investitsiya faolligiga va ishlab chiqarish hajmining oshishiga ta'sirini aniqlash mumkin. Bunda berilgan soliq imtiyozlari hajmi bilan ularning natijasida erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash muhim ahamiyatga ega. Chunki barcha soliq imtiyozlari ham bir xil iqtisodiy samara bermaydi.

O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida soliq imtiyozlarini tartibga solish, ularni maqsadli yo'naltirish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, soliq imtiyozlarini berishda aniq mezonlarni belgilash, ularning amal qilish muddatini asoslash va erishilgan natijalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Amaliy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlaridan foydalanishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan:

- soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi;
- ayrim imtiyozlarning maqsadli natijaga erishish darajasining pastligi;
- soliq imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini baholash zarurati;
- turli soliq to'lovchilar uchun imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarining bir xil emasligi;
- berilgan imtiyozlar evaziga yaratilgan investitsiya, yangi ish o'rinlari va ishlab chiqarish hajmini monitoring qilish tizimini kuchaytirish zarurati.

Shu sababli soliq imtiyozlarini takomillashtirishda ularni faqat soliq yukini kamaytirish vositasi sifatida emas, balki aniq iqtisodiy natijaga erishishga xizmat qiluvchi rag'batlantirish mexanizmi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda soliq imtiyozlarini berishning samaradorlik, maqsadlilik, shaffoflik va muddatlilik tamoyillariga asoslanish davlat budjeti manfaatlarini bilan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.[6]

1-jadval


2020-2024-yillarda yalpi ichki mahsulot, davlat budjeti va soliq imtiyozlari tahlili¹

№	Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1	YaIM hajmi (mlrd so'm)	602 551	734 588	888 342	1 065 569	1 454 114,9
2	Davlat budjeti daromadlari (mlrd so'm)	132 938	164 799	202 043	232 664	270 403,1
3	Jami soliq imtiyozlari (mlrd so'm)	31 065,6	43 899,6	72 963,7	69 777,9	72 565,8
4	Davlat budjeti daromadlarining YaIMga nisbati, %	22,1	22,4	22,7	21,8	18,6
5	Soliq imtiyozlarining YaIMga nisbati, %	5,1	5,9	8,2	6,5	5,0
6	Soliq imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga nisbati, %	23,3	26,6	36,1	30,0	26,8

¹ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvalda 2020-yilda davlat budjeti daromadlari 132 938,0 mlrd so'mni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,1 foizni, 2021-yilda davlat budjeti daromadlari 164 799,0 mlrd so'mni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,4 foizni, 2022-yilda davlat budjeti daromadlari 202 043,0 mlrd so'mni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,7 foizni, 2023-yilda davlat budjeti daromadlari 232 664,0 mlrd so'mni tashkil etib, YaIMga nisbatan 21,8 foizni, 2024-yilda esa davlat budjeti daromadlari 270 403,1 mlrd so'mni tashkil etib, YaIMga nisbatan 18,6 foizni yoki soliq yukini tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.[7]

2020–2024-yillarda davlat budjeti daromadlari, soliq imtiyozlari va ularning nisbati dinamikasi, %

1-rasm. 2020–2024-yillarda yalpi ichki mahsulot va davlat budjeti o'sish ko'rsatkichlari hamda ularidagi soliq imtiyozlari tahlili (gistogramma).²

Agar rasmdagi ma'lumotlar tahliliga e'tibor qaratsak, 2020-yilda 31 065,6 mlrd so'mlik soliq imtiyozlari 602 251 mlrd so'mlik yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,1 foizni, 132 938 mlrd so'mlik davlat budjeti daromadlariga nisbatan esa 23,3 foizni tashkil etgan. 2021-yilda 43 899,6 mlrd so'mlik soliq imtiyozlari 734 588 mlrd so'mlik yalpi ichki mahsulotning 5,9 foizini va 164 799 mlrd so'mlik davlat budjeti daromadlarining 26,6 foizini tashkil etgan. 2022-yilda 72 963,7 mlrd so'mlik soliq imtiyozlari 888 342 mlrd so'mlik yalpi ichki mahsulotga nisbatan 8,2 foizni va 202 043 mlrd so'mlik davlat budjeti daromadlariga nisbatan 36,1 foizni tashkil etgan. 2023-yilda 69 777,9 mlrd so'mlik soliq imtiyozlari 1 065 569 mlrd so'mlik yalpi ichki mahsulotning 6,5 foizini va 232 664 mlrd so'mlik davlat budjeti daromadlarining 30 foizini tashkil etgan. 2024-yilda esa soliq imtiyozlari 72 565,8 mlrd so'mni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,0 foizni, 270 403,1 mlrd so'mlik davlat budjeti daromadlariga nisbatan esa 26,8 foizni tashkil etgan. Bu holat davlat budjeti uchun nisbatan katta miqdordagi yo'qotishlar yoki samarasiz soliq imtiyozlari berilayotganligini ko'rsatadi.

Bilvosita soliqlar tarkibida yuqori ulushga ega bo'lgan foyda solig'iga kelsak, 2022-yil 1-yanvardan boshlab "Navoiy KMK" AJ va "Olmaliq KMK" AJning soliq bazasining qolgan qismiga undiriladigan foyda solig'i stavkasi 75 foizdan 50 foizgacha kamaytirildi. Stavkaning pasaytirilishi va jahon bozorida oltin narxining o'zgarishi natijasida ushbu korxonalardan olinadigan foyda solig'i tushumlari 2022–2023-yillarda 2021-yilga nisbatan (25,7 trln so'm) o'rtacha 6 trln so'mga kamaygan.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda soliq imtiyozlarining asosiy qismi Soliq kodeksiga muvofiq joriy etilgan bo'lsa-da, ayrim imtiyozlarning maqsadlilik va samaradorligini yanada takomillashtirish zarur.

2024-yilda soliq imtiyozlari YaIMning 5,0 foizini, davlat budjeti daromadlarining esa 26,8 foizini tashkil etgani ularning budjetga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Shu sababli soliq imtiyozlarini faqat aniq iqtisodiy maqsad asosida, chuqur tahlil va samaradorlik mezonlari asosida joriy etish maqsadga muvofiq. Samarasiz imtiyozlarni qisqartirish davlat budjeti daromadlarini oshirish va soliq siyosati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.[7]

Xulosa va takliflar (Conclusions and recommendations, Заключение и предложения)

Tahlil natijalari soliq imtiyozlarining tadbirkorlik va investitsiya faolligini rag'batlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlagan holda, ularni qo'llash amaliyotida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ham ochib berdi: imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligini baholovchi yagona

² Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

metodologiyaning yo'qligi, ayrim imtiyozlarning maqsadli natijaga to'liq erishmasligi, ularning davlat budjeti daromadlariga ta'sirini muntazam baholash tizimining shakllanmaganligi, soliq to'lovchilar o'rtasida imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarining notekisligi, shuningdek berilgan imtiyozlar evaziga yaratilishi kutilgan investitsiya, ish o'rinlari va ishlab chiqarish hajmini kuzatib borish (monitoring) mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Bu, o'z navbatida, soliq imtiyozlarini nafaqat soliq yukini yengillashtirish vositasi, balki aniq iqtisodiy natijaga yo'naltirilgan strategik rag'batlantirish instrumenti sifatida qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Soliq imtiyozlarining iqtisodiy va fiskal samaradorligini baholashning yagona, aniq mezonlarga asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish va uni Soliq kodeksi doirasida normativ jihatdan mustahkamlash lozim.

2. Har bir soliq imtiyozi uchun amal qilish muddatini oldindan belgilash ("sunset clause" tamoyili) va muddat tugagach uning samaradorligini majburiy tahlil qilib, davom ettirish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Imtiyozlarni berishda aniq va o'lchanadigan natijadorlik shartlarini (yaratilgan ish o'rinlari soni, jalb qilingan investitsiya hajmi, ishlab chiqarish o'sishi kabi) majburiy mezon sifatida belgilash, bu esa

imtiyozlarni "umumiy" emas, balki maqsadli va shartli xarakterga ega qilishga xizmat qiladi.

4. Xalqaro amaliyotga muvofiq, har yili "soliq xarajatlari (tax expenditure) hisoboti"ni tayyorlab, uni ochiq e'lon qilish orqali soliq imtiyozlarining budjetga ta'sirini shaffof tarzda jamoatchilikka yetkazib borish tavsiya etiladi.

5. Alohida korxona yoki tarmoqlarga individual tartibda beriladigan imtiyozlar (masalan, aniq korxonalar uchun soliq stavkasini pasaytirish) amaliyotini qisqartirib, ularning o'miga barcha soliq to'lovchilar uchun teng va shaffof huquqiy mezonlarga asoslangan imtiyoz tizimiga bosqichma-bosqich o'tish lozim.

6. Samaradorligi past yoki maqsadga erishmagan imtiyozlarni muntazam qayta ko'rib chiqish va ularni qisqartirish hisobidan bo'shagan resurslarni davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirishga va yanada samarali, natijaga yo'naltirilgan yangi rag'batlantirish mexanizmlariga qayta yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash hamda tadbirkorlik va investitsiya faolligini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi shaffof va natijaga yo'naltirilgan soliq siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019. T.: "Adolat", 2024.
2. Atkinson, A. B., & Stiglitz, J. E. (1972). The structure of indirect taxation and economic efficiency. *Journal of Public economics*, 1(1), 97-119.
3. Tanzi, V. (2000). *Taxation in an integrating world*. Bloomsbury Publishing USA.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son Qarori "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida".
7. <https://gov.uz/uz/imv> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi
8. Gechert, S., & Heimberger, P. (2022). Korporativ soliqlarni kamaytirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradimi? *European Economic Review*, 147, 104157.
9. Gurdal, T., Aydin, M., & Inal, V. (2021). G7 mamlakatlarida soliq tushumlari, davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik: vaqt va chastota sohasi yondashuvlari asosida yangi dalillar. *Economic Change and Restructuring*, 54, 305–337.
10. <https://www.lex.uz/docs/-4674902>
11. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy axborot veb-sayti.